



SIFATLI TA'LIM - ISLOHATLAR NATIJASI

G'ayipova G.N.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti erkin tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: egra, egma, ta'lim, matematika, o'qish, loyiha, mantiqiy masala, pedogogika, texnologiya, faoliyat, baholash, qobiliyat.

Ключевые слова: egra, EGMA, образование, математика, чтение, проект, логический вопрос, педагогика, технология, деятельность, оценка, способности.

Key words: egra, egma, education, mathematics, reading, project, logical issue, pedogogy, technology, activity, assessment, ability.

Bugungi kunda ta'lim tizimida fan va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini barqaror rivojlantirish mamlakatning munosib kelajagini yaratishning muhim omili bo'lib bormoqda. AQSH, Angliya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Rossiya kabi davlatlarda yuqori kompetentlikka ega, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga rivojlanishning asosiy yo'nalishi sifatida qaralib, ta'limda innovatsiyalarni, shu jumladan, o'qitishning ilg'or, interfaol va ijodiy uslublarini keng joriy etilishi ta'minlanmoqda. Ta'lim sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik hamda jahon ta'lim talablari bilan mosligi, o'quvchilarning matematik savodxonligi PISA xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etib ijobiy natijaga erishishi, ta'lim oluvchilarda olgan bilimlarini amaliyotda muvaffaqiyatli foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish, o'z qobiliyatlarini, ijodkorligini, tashabbuslarini ro'yobga chiqarishga sharoit yaratuvchi ta'lim muhitini joriy qilishda muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim oluvchilarni innovatsion tayyorlash, zamonaviy ta'limni amalga oshirish bo'yicha dunyoning yetakchi ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda ta'lim oluvchilarning kompetentlik mezonlari, innovatsion ta'lim muhitini yaratish muammolari, xalqaro ta'lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish kompetensiyalari



tarkibini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llash, motivatsion, kognitiv, operatsion, reflektiv va o'z-o'zini baholash kabi indikatorlarni shakllantirish asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimizda ilg'or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quvchilarda o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutuvchi umumiy o'rta ta'lim tizimida zamonaviy kompetensiyali yondashuvlarni ishlab chiqishni ta'minlashga qaratilgan islohotlar natijasida o'quvchilarda o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishning zamonaviy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ularning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmogda. Shu qatori boshlang'ich ta'lim tizimida o'qish hamda matematika fanlari alohida o'rin tutganligi bois, bu fanlarni o'qitishga qaratilgan asosiy e'tibor har doim o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Xalqaro tadqiqotlardan EGRA va EGMA - umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik va hisoblash ko'nikmalarini baholashga mo'ljallangan ilmiy asoslangan modellarga tayanadi. Boshlang'ich sinflarda o'qish hamda matematika bo'yicha ko'nikmalariga baho beradi.

Baholash natijalariga ko'ra yangi o'quv dasturlari, o'qitish uslubi va yondashuvlar O'zbekiston yoshlarining yaxshi natija ko'rsatishi uchun moslashtiriladi.

Bu loyihalar o'quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalar rivojlanishiga turtki berishga xizmat qiladi.

O'quvchilarning o'qish (EGRA) va matematika (EGMA) bo'yicha qobiliyatlarni baholash tadqiqotlarini o'tkazish masalalari ko'rib chiqildi. Mazkur tadqiqotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini yaxshilash hamda ta'lim jarayonidagi kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu baholash tizimi dunyoning 70 dan ortiq mamlakatlarida qo'llaniladi.

EGRA va EGMA xalqaro tajribalari amaliyotda bosqichma – bosqich joriy etib boriladi. Ushbu keng qamrovli va samarali baholash vositalari qirqdan ortiq mamlakatlarda va ko'plab tillarda qo'llanilgan.

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimida EGRA va EGMA xalqaro baholash dasturlari AQSH ning USAID tashkiloti bilan hamkorlikda joriy etilmoqda. Bu xalqaro baholash dasturlari orqali samarali natijaga erishish uchun o'quvchilar ham qunt bilan bilim olishlari talab etiladi. O'z-o'zini doim



rivojlantirib borish, jamiyatda ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishi, darsliklardan tashqari badiiy adabiyotlar o'qishi, uyida shaxsiy kutubxona tashkil etilishi, o'zlashtirishi ortda qolayotgan tengdoshlariga ko'maklashishi, axborot oluvchi manbalardan (kompyuter, telefon, televizor, internet) samarali foydalanish, darsdan tashqari vaqtlarda fan, sport hamda san'at to'garaklariga qatnashish, nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay ola bilishi zarur. Bu faoliyat jarayonida ota-ona farzandiga ta'lim olishga stimuly va motivatsiya uyg'ota olish muhitini yaratib berishi lozim.

Umuman olganda mamalakatimizda aynan mana shunday xalqaro dasturlarning ta'lim tizimini baholash va monitoring qilishdagi ishtiroki mavjud emasligi yoki o'quvchi yoshlar bilimlari darajasini baholash yoki monitoring qilishning "Milliy dasturi" yaratilmaganligi, hududlar kesimida yoshlar tomonidan u yoki bu fanni o'zlashtirish darajasining sifati va sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ko'lamini belgilab borish va tegishli islohotlar o'tkazib borish imkoniyatini cheklab qo'ymoqda. Shuningdek, boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi o'qitish darajasi rivojlanishining ortda qolayotganligi yaqin kelajakda malakali kadrlar tanqisligini keltirib chiqarish mumkin.

Bularni bartaraf etishda quyidagi takliflarni amalga oshirish joiz deb hisoblaymiz: Bilimlarni nazorat qilib, baholab borish o'quvchi uchun ham rag'batlantirish ham xatolar ustida yanada ko'proq ishlashga turtki beruvchi vosita hisoblanadi. Shundan kelib chiqib mamlakatimizda bu tizimni yanada takomillashtirish lozim. Bu yo'l bilan pedagoglarga yanada o'z ustilarida ishlashlarini talab etadi. Kelajak avlod farzandalarini yuqori salohiyatli, madaniyatli, ma'naviyatli, keng fikrli oluvchi shaxs sifatida kamol toptirishga har bir fuqaro mas'uliyat bilan yondasha olishi lozim.

EGRA va EGMA baholash modellari savodxonlik va hisoblashning oddiy, arzon narxlarini ta'minlash uchun mo'ljallangan. 2006 yilda rti International EGRA-ni USAID EdData II loyihasi bo'yicha erta o'qishni baholash sifatida rivojlantira boshladi. EGMA bir necha yil o'tgach, matematikaning dastlabki ko'nikmalarini baholash sifatida ergashdi. Ikkala baholash ham og'zaki bo'lib, o'qish va hisoblash qobiliyatlarini rivojlantirishga asos bo'lgan asosiy ko'nikmalarni o'rganadi. O'qish uchun sinovdan o'tgan ko'nikmalarga harflarni aniqlash, fonemik xabardorlik, oddiy so'zlarni o'qish va tinglashni tushunish kiradi. Sinovdan o'tgan matematik ko'nikmalarga raqamlarni aniqlash, taqqoslash va ob'ektlar to'plamlarini buyurtma qilish kiradi. EGRA kamida 11 mamlakatda va 19 tilda boshqarilgan EdData II dastur va boshqa tashkilotlar tomonidan 30 dan ortiq mamlakatlarda va 60 tillarda ishlatilgan. EGRA ning



turli tillarga moslashishi qiyin bo'lib qolmoqda, chunki o'rganish tezligi va jarayoni tilga qarab farq qilishi mumkin.

Loyiha ikkita xalqaro baholash vositasini mahalliy sharoitga moslashtirdi, EGRA va EGMA, bu o'quvchilarning asosiy o'qish va matematikani qanchalik yaxshi o'rganayotganini o'lchaydi ikkinchi va uchinchi sinf oxiridagi ko'nikmalar, ushbu ko'nikmalarni egallashdagi to'siqlarni aniqlash va keyinchalik o'qish va matematikani takomillashtirishga aralashuvni rivojlantirishga yordam berish.

Loyiha maqsadlaridan o'qitishning yetti tili - o'zbek, qoraqalpoq, tojik, qirg'iz, turkman, qozoq va rus tillari bo'yicha Milliy erta sinf o'qishni baholash (EGRA) va erta sinf matematikasini baholash (EGMA) ni o'tkazish. Loyihaning global maqsadi O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilishdan iboratdir.

Demak, mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo'lishi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga o'qish savodxonligi va boshlang'ich matematikani o'rgatish bo'yicha xalqaro standartlarni joriy etish orqali ta'minlanadi.

Adabiyotlar:

1. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan Axborotnoma 1. O'qituvchi "Nashriyot-Matbaa ijodiy uyi". Toshkent - 2020.
2. Assessing Reading, Mathematics and Scientific Literacy: A framework for PISA 2009. OECD, 2009
3. Essex, C. (1996), Teaching Creative Writing in the Elementary School. ERIC Digest, ERIC Digest., <https://files.eric.ed.gov/fulltext/ED391182.pdf>.

РЕЗЮМЕ

Maqolada xalqaro baholash dasturlaridan EGRA VA EGMA tadqiqotlariga to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, bu loyiha ishlash ahamiyati va ularning maqsad, vazifalari yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются исследования egra и EGMA из международных оценочных программ. Также освещается важность работы над проектом и их цели, задачи.

SUMMARY

The article focuses on EGRA and EGMA studies from international assessment programs. Also, the importance of working on this project and their goals, objectives are highlighted.